O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

№ 17 (16423)
2021-YIL
26-MAY,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ   YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU   @YOSHLAROVOZIUZ   @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI O'G'IL-QIZLARIMIZGA

Aziz farzandlarim!

Qadrli maktab bitiruvchilari!

Avvalo, barchangizni beg'ubor o'quvchilik yillaringizni ortda qoldirib, qadrdon maktabingiz, mehribon ustozlaringiz bilan xayrlashib, hayotingizning yangi, yanada mas'uliyatli bosqichiga qadam qo'yayotganingiz bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Ushbu quvonchli ayyomda mamlakatimizdagi barcha maktablarda "so'nggi qo'ng'iroq"lar yangrab, qariyb 438 ming nafar o'quvchi yoshlarimiz yetuklik shahodatnomalarini qo'llariga olmoqda.

Bu nafaqat siz, aziz farzandlarimiz, balki biz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar uchun ham g'oyat quvonchli va hayajonli voqeadir. Chunki qalbi pok orzu-umidlar bilan to'lgan sizlar kabi navqiron, azm-u shijoatli yoshlarimiz timsolida biz uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya sohasidagi sa'y-harakatlarimizning yana bir amaliy natijasini, xalqimiz va Vatanimiz kelajagini ko'ramiz.

Sizlar keyingi ikki yil davomida pandemiya sharoitida o'qib va yashab, qiyinchiliklarga qarshi kurashish ko'nikmalarini ham egallashingizga to'g'ri keldi. Albatta, bu murakkab sinovli kunlar hademay o'tmishga aylanadi.

Ishonchim komil, yangi O'zbekiston sharoitida, zamonaviy taraqqiyot talablari asosida ta'lim-tarbiya olgan yosh avlod vakillari sifatida barchangiz davlatimiz, xalqimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarni qadrlab, ulardan yanada samarali foydalanasiz.

Qadrli o'g'il-qizlarim!

Ma'lumki, biz o'z oldimizga ulkan maqsadlarni qo'yib, ularga erishishning eng muhim omili sifatida ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta ahamiyat bermoqdamiz.

Qisqa muddatda maktabgacha ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" degan shior asosida maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi.

Bu haqda gapirganda, oxirgi to'rt yilda 134 ta yangi maktab qurilib, 2 ming 965 ta maktab rekonstruksiya qilinib, tubdan ta'mirlangani va jihozlanganini qayd etish lozim.

Yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi zamonaviy Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar barpo etilmoqda.

Hozirgi vaqtda respublikamizda 10 mingdan ziyod davlat umumta'lim, 171 ta nodavlat, 18 ta davlat-xususiy sheriklik shaklidagi maktablar faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, 56 ta matematika, 28 ta kimyo-biologiya, 14 ta axborot texnologiyalari fanlariga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi.

Davomi 2-sahifada.

SAYLOV – 2021

*Yaqinda O'zbekistonga Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YXHT) Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) direktori Matteo Mekachchi tashrif buyurdi.*

## XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM YO'NALISHI

Tashrifda mamlakatimizda joriy yilning oktyabr oyida bo'lib o'tadigan muhim siyosiy tadbir – Prezident saylovіga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha Byuroning ehtiyojlarni baholash missiyasi yurtimizga kelishi ma'lum qilindi.

### XALQARO KUZATISH VA XALQARO E'TIROF

Xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar kuzatuvchilarining saylovlarda ishtiroki demokratik saylovlarni ochiq va oshkora o'tkazishda muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik mamlakatlarda o'tkazilayotgan saylovlarni kuzatish insonlarning siyosiy huquqlarining ta'minlanishida muhim jihat hisoblanadi.

Saylovlarga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir barcha tadbirlar, shuningdek, saylov kuni ovoz berish joylarida va ovozlarni sanab chiqishda boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilarning ishtirok etishi mumkinligi O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida belgilab qo'yilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'tkazilayotgan saylovlarda xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar sonining ko'payishi kuzatilmoqda. 2016-yilda o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida 555 (2015-yilda – 296) nafar chet ellik kuzatuvchi ishtirok etgan bo'lsa, 2019-yilgi parlament saylovlarida ularning salmog'i 825 (2014-yilda – 331) nafarni tashkil etdi.

Davomi 4-sahifada.

FESTIVAL

## "TOSHKENT: 5 TASHABBUS HARAKATI – 2021"

**Joriy yil 21—25-may kunlari poytaxtimizda "Toshkent: 5 tashabbus harakati – 2021" deb nomlangan katta bayram tadbiri tashkil etildi.**



▶3

# MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI O'G'IL-QIZLARIMIZGA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Shu boradagi ishlarimizni izchil davom ettirib, keyingi paytda fizika va chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktablar ochishga alohida e'tibor bermoqdamiz. Shu yil sentabr oyida 14 ta fizika va 207 ta chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktab o'z faoliyatini boshlashini alohida ta'kidlash lozim.

Eng muhimi, ana shu maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan o'g'il-qizlarimiz xalqaro fan olimpiadalari, ijodiy festival va tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallamoqda, mamlakatimiz va xorijdagi nufuzli oliygohlarga kirib o'qish huquqini qo'lga kiritmoqda.

Oxirgi bir yarim yilda iqtidorli o'quvchilarimiz xalqaro olimpiadalarda 4 ta oltin, 18 ta kumush, 30 ta bronza medalini qo'lga kiritgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Yurtimizda olijanob kasb egalari bo'lgan o'qituvchilar, ustoz-murabbiylarning mashaqqatli mehnatini munosib rag'batlantirish, ularning ish va turmush sharoitini yaxshilash, jamiyatdagi obro'-e'tiborini oshirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Xalqaro fan olimpiadalari g'oliblari va ularning ustozlarini moddiy taqdirlash mexanizmi yo'lga qo'yilgani ham ana shunday ishlarimiz qatoriga kiradi.

Dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar tajribasi asosida maktab ta'limi uchun o'quv dasturi va darsliklarining yangi avlodini yaratish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi.

Bugungi kunda butun yurtimizni qamrab olgan besh muhim tashabbus doirasida ham siz, aziz yoshlarimizning yetuk insonlar bo'lib kamol topishingiz uchun ko'p ishlar qilinmoqda.

Xususan, farzandlarimizni san'at dunyosiga oshno etish maqsadida 800 dan ortiq madaniyat markazida 4,5 mingdan ziyod to'garak faoliyati yo'lga qo'yilgani, ular musiqa asboblari va zarur jihozlar bilan ta'minlangani, maktablarda tashkil etilgan 36,5 mingdan ziyod to'garaklarga 1 million 100 ming nafar o'g'il-qizlarimiz jalb etilgani bu boradagi muhim qadamlardir.

Shuningdek, respublikamiz maktablarida 49 mingdan ortiq, bolalar va o'smirlar sport maktablarida esa 26 mingga yaqin to'garaklarda minglab o'g'il-qizlarimiz jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Barcha maktablarimiz keng polosali Internet tarmog'iga bosqichma-bosqich ulanayotgani hamda mamlakatimizda jami 133 ta raqamli texnologiyalar o'quv markazi ochilgani farzandlarimizda zamon talabi bo'lgan kompyuter va "IT" texnologiyalar sohasida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim masala – yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu asosda 201 ta axborot-kutubxona markazidagi kitoblar soni qariyb 25 millionga yetkazilgani, o'tgan yili maktab kutubxonalari 150 mingdan ziyod yangi adabiyotlar bilan ta'minlangani yoshlarimizning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynamoqda.

Aminmanki, shu kunlarda joylarda ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilayotgan yoshlar forumlari va besh muhim tashabbusga bag'ishlangan festivallar ham maktablardagi bitiruv tadbirlariga uyg'un bo'lib, o'g'il-qizlarimiz hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Hurmatli yosh do'stlarim!

Mana shu unutilmas damlarda sizlar yangi hayot ostonasida turib, kelajak rejalarini tuzar ekansiz, oldingizda katta imkoniyatlar va mas'uliyatli vazifalar turganini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Qalbingizdagi ezgu orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarishda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 137 ta oliy o'quv yurti, 339 ta kasb-hunar maktabi, 193 ta kollej va 196 ta texnikum sizlarga muntazirdir.

Sizlar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati ham yaratilgan. Shu maqsadda 71 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi, 18 ta oliygohda kechki bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi ehtiyojdan kelib chiqib, so'nggi 5 yilda bakalavriat bosqichida 134 ta ta'lim yo'nalishi, magistraturada 147 ta mutaxassislik yangidan tashkil etildi.

Oliy ta'lim muassasalarida 2021-2022-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida ham kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz uchun bir vaqtning o'zida 5 tagacha oliy ta'lim muassasasida tanlovlarda ishtirok etish imkoniyati yaratildi.

Bitiruvchi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yildagi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi. Mazkur ko'rsatkichni joriy yilda 28 foizga, 2030-yilda 50 foizga yetkazish – asosiy vazifamizdir.

Azim poytaxtimiz Toshkent shahrida dunyoning eng ilg'or oliygohlari bilan hamkorlikda xalqaro talablar asosida tashkil etilayotgan Yangi O'zbekiston universiteti ham siz, aziz yoshlarimizni joriy yildan o'z bag'riga chorlaydi.

Aziz bitiruvchilar, qadrli farzandlarim!

Shu kunlarda sizlarning baxtingiz, kamolingizni o'ylab, yurtimizda yana bir tizim joriy etilmoqda. Ya'ni, joylarda viloyat, shahar va tuman hokimliklari, sektor rahbarlari ota-onalar va o'quvchilar bilan uchrashib, barcha bitiruvchilar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish tashabbusi bilan chiqmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, maktabni bitirib chiqayotgan yigit-qizlarimizdan birontasi e'tibordan chetda qolmaydi. Ularning har biri xalqimiz, Vatanimizning cheksiz mehri va yuksak e'tiborini his qilib yashaydi.

Shu munosabat bilan sizlarga, butun mamlakatimiz yoshlariga murojaat qilib aytmoqchiman: hech qachon unutmang, sizlar inson har tomonlama erkin, ozod va farovon yashaydigan yangi O'zbekiston, yangi Renessans bunyodkorisizlar.

Sizlarning hayotda o'z munosib o'mingizni topishingiz uchun davlatimiz va jamiyatimiz bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarini to'la safarbar etadi.

Xalqimizning ana shunday yuksak ishonchiga doimo munosib bo'ling!

Sizlarning o'z oldingizga yuqori maqsadlar qo'yib, vaqtingizni behuda o'tkazmay, doimo bilim va ko'nikmalaringizni oshirib borishingiz, yangi kasb-hunarlarni egallashingiz va eng asosiysi o'z maqsadingiz sari tinmay harakat qilishingiz albatta kelgusidagi muvaffaqiyatlaringiz garovidir.

O'rganish, izlanish va intilishdan aslo to'xtamang!

Sizlarni maktab ta'limini muvaffaqiyatli tugatganingiz bilan yana bir bor samimiy tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, ishda va o'qishda, shaxsiy hayotda katta yutuq va omadlar tilayman.

Mustaqil hayot sari tashlayotgan ilk dadil qadamingiz qutlug' va muborak bo'lsin!

Sizlarning yutuq va g'alabalaringizga ishonaman, aziz bolalarim!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# KATTA HAYOTGA BOSHLOVCHI YO'L!

MUNOSABAT

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz maktablarining bitiruvchilariga ilk bor tabrik yo'lladi. Tabrikda samimiy tilaklar bilan birga, so'ngi yillarda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar hamda kelgusi yillardagi rejalar haqida so'z boradi.***



Darhaqiqat, ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor qaratilib, sifatli ta'limni ta'minlash maqsadida amaliy ishlar ko'lami oshirildi. So'nggi to'rt yilda 134 ta yangi maktab qurilib, 2 ming 965 ta maktab rekonstruksiya qilindi, tubdan ta'mirlandi va jihozlandi. Zamonaviy Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar barpo etilmoqda. Qisqa muddat ichida ijobiy natijalar ham ko'rinmoqda. Jumladan, oxirgi bir yarim yilda iqtidorli o'quvchilarimiz xalqaro olimpiadalarda 4 ta oltin, 18 ta kumush, 30 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Buning zamirida zahmatkash ustoz-murabbiylarning mehnatlari yotibdi.

Joriy yilda mamlakatimizdagi maktablarni qariyb 438 ming nafar o'quvchi tugatadi. Kelgusida ularning ta'limning keyingi bosqichini davom ettirishlari yoki kasb-hunar egallab, bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bitiruvchi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yildagi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetkazildi. Mazkur ko'rsatkichni joriy yilda 28 foizga, 2030-yilda 50 foizga yetkazish – asosiy vazifa etib belgilandi.

Mamlakatimizda 137 ta oliy o'quv yurti, 339 ta kasb-hunar maktabi, 193 ta kollej va 196 ta texnikum faoliyat ko'rsatmoqda. Yoshlarning ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati ham yaratilgan. 71 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi, 18 tasida kechki bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi ehtiyojdan kelib chiqib, so'nggi 5 yilda bakalavriat bosqichida 134 ta ta'lim yo'nalishi, magistraturada 147 ta mutaxassislik yangidan tashkil etildi.

Kecha yurtimizdagi barcha ta'lim muassasalarida bayram tadbirlari bo'lib o'tdi. So'nggi qo'ng'iroq sadolari Yunusobod tumanidagi 51-maktabda ham jarangladi.

— Bu yil maktabimizni 96 nafar o'quvchimiz bitirmoqda. Ularning 2 nafari oltin, 2 nafari kumush medal bilan umumta'limni yakunladi, — deydi maktab direktori Nargiza Karimova. — O'g'il-qizlarimizga kelgusi hayotda omad tilar ekanmiz, nafaqat rahbar-pedagog, balki yaqin bir inson sifatida yoshlarimizga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishlarini xohlaymiz. Oliy ta'lim muassasalarida 2021-2022-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida ham kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgani muhim qadamlardan biri. Hozirgi kunda yoshlarimiz bir vaqtning o'zida 5 tagacha oliy ta'lim muassasasida tanlovlarda ishtirok etishi ularning imkoniyatlarini yanada oshiradi. Davlat rahbarining maktab bitiruvchilariga yo'llagan tabrigi orqali mamlakatimiz yoshlariga murojaat qilib, "hech qachon unutmang, sizlar inson har tomonlama erkin, ozod va farovon yashaydigan yangi O'zbekiston, yangi Renessans bunyodkorisizlar" deganining o'zi yoshlarimizdan butun mamlakatimizning umidi katta ekanini anglatadi.

Maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Yoqutxon Umarova shunday deydi:

— Biz bitiruvchilarimizga ishonamiz, ularning har biri o'z maqsadiga ega. Ta'limning eng katta qismini maktabda olishdi. Kelajakda yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, bizning yuzimizni yorug' qilishadi. Ularga tilagimiz o'zgarishlardan hech qachon qo'rqmang! Katta orzularingiz sari jasorat bilan ildam qadam tashlang.

Bayram tadbiri bitiruvchilarning o'ziga xos chiqishlari, kuy-qo'shiqlari bilan ko'tarinki kayfiyatda o'tdi.

**Ro'ziqul OCHILOV**

# XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM YO'NALISHI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Mazkur holat O'zbekistonda saylovlar tub o'zgarishlar va demokratik islohotlar, vujudga kelayotgan yangi siyosiy muhit sharoitida o'tkazilayotganligiga xalqaro hamjamiyatda ham e'tibor kuchayib borayotganidan dalolatdir.

O'tgan saylovlarda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, YXHT Parlament assambleyasi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligining Parlamentlararo assambleyasi kabi xalqaro tashkilotlar vakillari hamda xorijiy davlatlarning qonunchilik va saylov organlaridan kuzatuvchilar ishtirok etgan.

Kuzatuvchilar saylovlarda ishtirok etar ekan, bo'lib o'tayotgan jarayonlarga baho berish uchun ma'lumot to'plashadi, saylov qonunchiligi va amaliyotini o'rganadi, saylov komissiyalari faoliyatiga baho beradi.

### BYURONING MANDATI

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bu inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, barqaror demokratik institutlar va qonun ustuvorligini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

YXHTga a'zo davlatlar, shubhasiz va haqli ravishda insoniylik mezonlari o'lchovi masalalari davlatlarning faqatgina ichki ishi emas, balki xalqaro miqyosda ishtirokchi davlatlar tomonidan alohida e'tiborga olinadigan masala, deb hisoblaydi. Shu maqsadda YXHTga a'zo davlatlar tomonidan 1990-yilda ishtirok etuvchi davlatlardagi saylovlar bo'yicha aloqa va ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash uchun "Erkin saylovlar bo'yicha byuro" tashkil etilgan edi. Byuro cheklangan miqyoslarda saylovlarni kuzatish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi.

1992-yilda ushbu tuzilma "Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byuro", deb atala boshladi. Uning mandati kengaytirilib, insoniylik mezonlarining boshqa jihatlarini ham qamrab ola boshladi. 1994-yildan DIIHB saylov jarayoni ustidan – saylov boshlanishidan oldin, saylov davrida va saylov o'tganidan keyin keng qamrovli kuzatishni boshladi.

YXHTning 1999-yili Istambulda o'tgan oliy darajadagi uchrashuvida qabul qilingan "Yevropa xavfsizligi Xartiyasi"da ishtirokchi davlatlar o'zlaridagi saylovlarni kuzatish uchun DIIHBni taklif etish yuzasidan zimmalariga maxsus majburiyat oldi. 2006-yilda Bryusselda YXHT Vazirlar kengashining uchrashuvida ishtirokchi davlatlar DIIHBning saylovlarni kuzatish bo'yicha mandatini yana bir bor tasdiqladi.

### O'ZARO HAMKORLIK

O'zbekistonning saylovlar o'tkazish jarayonida YXHT DIIHB bilan o'zaro hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda.

Bunday hamkorlik samarasi o'laroq mamlakatimiz milliy saylov tizimini yanada demokratlashtirish, saylov qonunchiligi va amaliyotini umume'tirof etilgan xalqaro demokratik standartlarga uyg'unlashtirish orqali fuqarolarning saylovga oid huquqlarini yanada keng va to'la ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu hamkorlik 22 yillik tarixga ega. Byuro 1999-yildan beri mamlakatimizda parlament va prezident saylovlarini kuzatishda ishtirok etib kelmoqda. Bu esa O'zbekistonda saylovlarni umume'tirof etilgan va eng ilg'or amaliyot, mamlakatimiz saylovlar sohasida olgan majburiyatlariga asosan adolatli, halol va shaffof o'tkazilishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bu borada YXHT DIIHB missiyasining har bir saylov natijalari bo'yicha yakuniy hisobotida o'z aksini topgan tavsiyalarning maqbullari O'zbekiston saylov qonunchiligi va amaliyotiga implementatsiya qilinib, saylovlarga oid milliy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

O'tgan vaqt mobaynida O'zbekiston YXHT DIIHB missiyasining saylovlarni kuzatish borasidagi bir qator tavsiyalarini amalga oshirdi. Saylovga oid qonunlar va qonunosti hujjatlari tizimlashtirilib, yagona Saylov kodeksiga birlashtirilgani, saylov jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilgani kabi ko'plab ko'rsatkichlar buning yorqin dalilidir.

Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilishda YXHTning DIIHB rolini alohida ta'kidlash lozim. DIIHB saylovlarni kuzatish bo'yicha missiyasi tomonidan milliy saylov huquqiy me'yorlarini tizimlashtirish va tartibga solish zarurligi 2016-yildagi muddatidan oldin bo'lib o'tgan prezident saylovi bo'yicha yakuniy hisobotda ham huquqiy me'yorlarni uyg'unlashtirish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha tavsiyalar berilgan edi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Saylov kodeksining qabul qilinishi milliy qonunchiligimizni mustahkamlash, demokratik saylovlarni o'tkazishni yanada takomillashtirish, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro imijini yanada yuksaltirish yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

Kodeks loyihasini ishlab chiqish jarayonida saylov sohasida xalqaro standartlar va bir qator xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasiga tayanildi. Shuningdek, loyiha yuzasidan xalqaro ekspertiza o'tkazilib, DIIHB va Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasidan tavsiya va tegishli xulosa olindi.

### EHTIYOJLARNI BAHOLASH MISSIYASI O'ZI NIMA?

YXHTda ishtirokchi davlatlar tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq, DIIHB saylov jarayonlari bilan bog'liq vakolatlar doirasida ishtirok etuvchi davlatlarga saylov qonunchiligini takomillashtirish va amalga oshirishda yordam beradi. Kuzatuvchilar tomonidan qo'llaniladigan saylovlarni kuzatish bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqadi, saylovlarning o'tkazilishini YXHT majburiyatlari va demokratik saylovlar bo'yicha boshqa xalqaro standartlarga muvofiqligini baholaydi va tavsiyalarni taqdim etadi.

Byuro saylovgacha, saylov paytida va undan keyingi jarayonlarni kuzatishi mumkin. Saylovgacha kuzatish tadbirlari Ehtiyojlarni baholash missiyasi (EBM) ishidan boshlanadi.

Odatda, EBM mamlakatga muayyan saylov boshlanishidan bir necha oy oldin saylovoldi vaziyati, shu jumladan, saylovga tayyorgarlikni baholash uchun yuboriladi.

Missiyaning asosiy vazifasi — saylov bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazishning maqsadga muvofiqligi xususida tavsiyalar ishlab chiqish, agar shunday tadbirlar zarur bo'lsa, ularning aynan qanday shaklda bo'lishi aniqlangan ehtiyojlarga yaxshiroq javob berishini belgilashdan iborat. EBMning ishlash davri bir necha kunni tashkil etadi. Missiya tarkibiga DIIHBning saylovlar bo'limi xodimlari hamda boshqa mutaxassislar kiradi.

EBMning tashrifi davomida saylov organlari va davlat hokimiyati organlarining vakillari, siyosiy partiyalar, OAV, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va YXHTning joylardagi missiyalari xodimlari, shuningdek, YXHTga ishtirokchi davlatlarning diplomatik vakillari va boshqa tegishli xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan uchrashadi va saylov bilan bog'liq faoliyat xususida tavsiyalar tayyorlaydi.

EBM hisobotiga saylov bilan bog'liq u yoki bu tadbirning aniq shakli, hajmi va miqyosi haqidagi tavsiyalar kiritiladi. EBM tomonidan saylov bilan bog'liq jarayonni kuzatish bo'yicha faoliyatining quyidagi shakllaridan biri tavsiya etilishi mumkin:

– saylovni kuzatish bo'yicha to'laqonli missiyasi;

– saylovni kuzatish bo'yicha cheklangan missiya;

– saylovni baholovchi missiya yoki ekspertlar guruhini yuborish.

Hisobotda nazarda tutilayotgan missiya vazifalarini bajarish uchun zarur bo'ladigan ekspertlar soni, shuningdek, saylovni har tomonlama kuzatishni ta'minlash maqsadida ishtirokchi davlatlardan so'ralishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli kuzatuvchilar va qisqa muddatli kuzatuvchilar soni ko'rsatiladi. Jumladan, 2019-yilgi parlament saylovlarida EBM O'zbekiston tarixida ilk bor saylovlardan olti oy avval taklif etilgan edi.

EBM hisobotida saylovoldi muhiti va saylovlarga tayyorgarlik jarayoni, mamlakatda erkin va demokratik saylovlar o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ijobiy baholandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida iqtisodiyot va davlat boshqaruvi, shu jumladan, valyutani tartibga solishni liberallashtirish, viza rejimini soddalashtirish va qo'shni mamlakatlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatish, bir qancha siyosiy mahbuslarni ozod etish va huquqni muhofaza qilish tizimidagi uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichi alohida qayd etildi.

O'zbekiston tomonidan Saylov kodeksining qabul qilinishi, jazoni o'tash joylarida saqlanayotgan ayrim toifadagi shaxslarning saylovlarda ishtiroki borasidagi cheklovlarning olib tashlangani, to'g'ridan-to'g'ri saylov prinsiplariga zid bo'lgan Qonunchilik palatasidagi o'rinlar uchun kvotalar institutining bekor qilingani va YXHTning yana boshqa bir qator tavsiyalari bajarilgani ijobiy baholandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, EBM O'zbekistonda parlament saylovlarini kuzatish uchun DIIHBning keng ko'lamli missiyasini yuborish maqsadga muvofiqligi haqida xulosa berdi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi YXHT DIIHB bilan konstruktiv muloqotga tayyor va ochiq hamda saylovlarning barcha bosqichlarini chinakam erkin, demokratik va adolatli o'tkazishda olib borilayotgan hamkorlikdan keng va samarali foydalanadi.

**Gulnoza RAHIMOVA,**
**O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining doimiy asosda ishlovchi a'zosi.**
**O'zA**

# ВЕСЬ ОРГАНИЗМ – МИШЕНЬ



**_Мир разумный реагирует на табачную эпидемию, предупреждая о ее необратимых последствиях. Ежегодно вредная привычка уносит 6–8 миллионов жизней, миллион из которых – жертвы пассивного курения. Это более 20 видов рака, 1,4 миллиарда долларов на лечение болезней, приобретенных вследствие постоянного отравления организма._**

СОХРАНИТЬ ЗДОРОВЬЕ

*Ассоциация студентов-медиков Узбекистана традиционно устраивает акции, посвященные международным датам, – Всемирному дню без табака (отмечается 31 мая) и Всемирному дню отказа от курения (19 ноября). Нынешняя тема – «Пандемия COVID-19 – повод отказаться от табака». Цель кампании Всемирной организации здравоохранения – помочь 100 миллионам жителей земного шара не сокращать свои жизни.*

*Наша собеседница – шестикурсница Ташкентского педиатрического медицинского института* ***Дильнора Юсупалиева****, удостоенная стипендии Ибн Сино и Государственной стипендии Президента Республики Узбекистан, активный пропагандист ЗОЖ.*

**– Вы мечтаете стать кардиологом. Как будущий специалист, контролирующий работу сердца, расскажите о влиянии на него никотина и множества вредных соединений табачного дыма.**

– Оно вместе с легкими получает первый удар. Все известные шкалы по оценке риска сердечно-сосудистых заболеваний выделяют курение как усугубляющий фактор. К примеру, у любителя сигарет учащается сердцебиение, повышается артериальное давление. Тромбообразование может привести к закупорке артерий. Долгосрочные исследования показывают: вредная привычка в разы увеличивает риск развития ишемической болезни сердца (инфаркт миокарда, стенокардия). Нагрузка на орган на 20 процентов выше нормы. Сужение сосудов ведет к гипоксии – кислородному голоданию тканей. Кстати, инфаркты и инсульты у курящих случаются в 2–4 раза чаще.

**– Курение называют «прижизненной платной кремацией»...**

– Точное определение. Страдает весь организм, становясь мишенью для никотина, цианида, мышьяка, угарного газа, 60 сильнейших канцерогенов. В 90 процентах случаев у заядлых курильщиков обнаруживается тяжелейшее онкологическое заболевание. Причем, как правило, на первые звоночки пациенты не обращают внимания, подчас заглушая их сигаретой.

Известный пародист Александр Иванов сказал: «Курение помогает людям, боящимся поправиться: они умирают худыми. От рака легких». А еще есть притча, в которой мудрец анализирует так называемые «плюсы» употребления табака. Этот человек не состарится, потому что переселится в мир иной молодым, его будут бояться собаки, так как придется ходить с клюкой, его дом не ограбят, так как кашель отпугнет воров…

Нет такого органа, на который не влияет табачный шлейф. Ученые установили: выкуривая пачку сигарет, человек получает дозу радиации в семь раз больше предельно допустимой. Вместе с другими канцерогенами она является главной причиной возникновения рака.

Наверняка многие хотя бы раз слышали аббревиатуру ХОБЛ. Это хроническая обструктивная болезнь легких. Как не заболеть, когда через дыхательные пути любителя подымить за год проходит более 80 килограммов табачного дегтя! Только представьте, как загрязнены легкие, лишенные возможности полноценно функционировать.

Мы говорим об органах, которые быстрее всего подвергаются разрушающему влиянию. Однако страдает весь организм: слизистые, желудок, кишечник, щитовидная железа, мозг. Снижение зрения и слуха имеют ту же причину. Употребление табака ускоряет старение, обостряет любые заболевания.

**– И конечно, COVID-19.**

– Естественно, так как коронавирусная инфекция бьет по легким. У табака и вируса, заставившего содрогнуться весь мир, общая крупная мишень. Курильщики, в том числе пассивные, переносят болезнь тяжелее, потому что задолго до пандемии лишили себя одной из главных ценностей – беспрепятственного дыхания. Пораженному органу труднее противостоять вирусу-разрушителю. Именно поэтому грозное заболевание вынесли в тему года. На чаше весов сигареты и жизнь, которая может оборваться в одночасье.

Читая статьи о вреде курения, подверженный пороку скептически усмехается: «Когда еще все это случится? Кто не курит и не пьет, тот здоровеньким помрет. Зато удовольствия себя не лишу». Встреча с коронавирусом не дает времени на раздумья. Развязка приходит быстро, если не молниеносно.

**– Прозвучало слово «удовольствие». Значит, оно и есть основная причина любви к табаку?**

– Химическая картина процесса такова. При попадании никотина в мозг и взаимодействии с его рецепторами выделяется дофамин – медиатор удовольствия, вещество, стимулирующее центральную нервную систему. Запускается своеобразная «система вознаграждения», возникает чувство удовлетворения, радости. Хуже всего, что искусственно формируется ненужный рефлекс. Ассоциативная память напоминает: «Покурил – и на душе легче».

Однако не стоит забывать: естественная выработка дофамина отличается от простимулированной. Баловство с сигаретой быстро перерастает в зависимость, и для подпитки приятного чувства нужно все больше никотина. Наверное, каждый помнит кадры из художественных фильмов, где переживания героев заканчиваются полной пепельницей окурков. На самом деле это не выход из стрессовой ситуации, а замкнутый круг, вырвать из которого способна только железная воля.

**– Каким было ваше участие в акциях против табакокурения?**

– Проводили «уроки здоровья» в школах. Ведь легче не начинать курить, нежели мучительно выходить из никотиновой зависимости. Начинали с младших школьников, так как они легко берут пример со старших товарищей, подвержены влиянию извне. Почва благодатная. Много вопросов, наивных детских соображений. Часто спрашивают: «Если табак настолько вреден, почему его не запретят вообще?» Объясняем, что это может вызвать более страшные последствия, и главное оружие в нашем противостоянии – человеческая сознательность и приверженность к здоровому образу жизни. Малыши – публика непосредственная. Кто-то после уроков просил дать плакаты для родителей: «Я им так же, как вы, расскажу».

*(Окончание на 8-й стр.)*

СЛУЖБА «101»

# Частая причина пожара



По статистике, причина большинства бытовых пожаров – неосторожное обращение с огнем. Самое распространенное нарушение – курение в постели, особенно в нетрезвом состоянии. Человек, не контролируя себя, засыпает, сигарета падает на одеяло или простыню. В результате трагедия.

К сожалению, в порядке вещей, когда куда попало бросают окурки и непотушенные спички. Попав на легко воспламеняющиеся предметы, они вызывают возгорание. То есть, помимо загрязнения окружающей среды, курильщики наносят материальный ущерб. Часто ценой беспечности и безразличия становятся человеческие жизни.

В состоянии алкогольного опьянения человек не воспринимает свои действия адекватно. Ложится на кровать с сигаретой, кладет ее на стол или бросает в окно, а она запутывается в занавеске. Опасна любая ситуация, так как приводит к пожару. Как правило, курящий в полубессознательном состоянии не способен оценить происходящее, либо отравление угарным газом происходит во сне.

Так, неосторожное обращение с огнем унесло жизнь Альфии И., 1948 года рождения. Сообщение о пожаре на третьем квартале Чиланзара поступило 14 января. В ходе тушения бойцы обнаружили тело хозяйки, которая злоупотребляла спиртными напитками.

Аналогичный случай произошел в Мирабадском районе столицы. Пожар случился 12 февраля в доме по улице Сарикул. Ночью жители почувствовали запах дыма и вызвали пожарных. Они обнаружили тело Дениса Г., 1977 года рождения. Возгорание потушили, предотвратив угрозу дальнейшего распространения огня на соседние дома и кровлю.

Помните: курение уносит не только здоровье, но и жизни. И вовсе не обязательно, что причиной будет тяжелое хроническое или острое заболевание. Можно просто сгореть. В прямом смысле этого слова. Огонь в руках пьяного – страшное разрушительное средство.

**Муслима РАХИМОВА,**
**майор**

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН

# «МАХАЛЛАБАЙ»: МАХАЛЛЯ, РАСЦВЕТАЙ!

***В республике внедряется новая система работы со сходами граждан, результаты которой не заставили себя ждать. Адресную поддержку получают представители разных слоев населения, воплощаются инициативы жителей. На устах узбекистанцев слова, получившие прописку в жизни, – «махаллабай», «фукаробай», «хонадонбай». В них отражаются перспективы развития уникального общественного института, следовательно, страны в целом.***



*Система «махаллабай», объединившая усилия множества предприятий и организаций в достижении общей цели, дает возможность быстро решать проблемы путем открытого диалога с населением. На повестке дня сокращение бедности, трудоустройство, своевременное предотвращение преступности, благоустройство.*

*И уже не удивляют простых жителей визиты представителей министерств и ведомств вместе с аксакалами, обстоятельные беседы на темы «Чем помочь?», «Каким видите развитие махалли?», «Какие идеи хотели бы осуществить?».*

*Республика становится территорией непрерывного созидания, в короткие сроки вырастают здания и сады, детские площадки и учебные центры. Работа кипит!*

### «ОКИБАТ» РАБОТАЕТ НА РЕЗУЛЬТАТ

Это как раз тот случай, когда игра слов к месту. Не зря лучшая по всем показателям махалля Мирзо-Улугбекского района столицы имеет название, символизирующее законченное дело. «Окибат» означает «результат».

Аксакал (экономист по образованию, депутат районного Кенгаша народных депутатов) **Муяссар Юлдашева** главной задачей считает непрерывное воспитание ответственности:

– Важно научиться чувствовать себя хозяином того места, где живешь. Ущербное представление «общее – значит ничье» тормозит развитие. Именно с ним столкнулись, благоустраивая дворы по программе «Обод махалла». Люди буквально вцепились в свои решетки, возмущаются, требуют представить основание, а ведь земля, на которой они разбили садики, государственная. Почему она должна быть предоставлена кому-то в личное пользование? Пришлось проводить разъяснительную работу. Интересов жителей никто не ущемляет, наша задача – вернуть дворам прежний вид и сделать их удобными для всех. «Хавфсиз махалла» – это открытость, каждый посторонний человек на виду.



Муяссар Таировна показывает камеры наблюдения. Все в рабочем состоянии, обзор хороший. Во дворе девятиэтажки работает техника, убирая самострой. Эмоции улеглись. Жильцов убедили, что действуют в их же интересах.

Странная закономерность: нововведения, как правило, вызывают недовольство. Начинали строить здание махаллинского комитета – ворчали, площадку для мини-футбола – то же самое. Площадка (для бесплатного пользования) вообще на некоторое время стала камнем преткновения: будет шумно, зачем она нужна? Почему-то ни у кого не возникло мысли, что детей нужно поднять от компьютеров, приобщить к двигательной активности. Теперь здесь проводят время ребята из трех махаллей. А в некоторых семьях мало задумываются, как младшее поколение ведет себя на улице. Бережливые и аккуратные дома, многие становятся варварами на улице. Могут что-то сломать, испортить, сорвать, огрызнуться на замечание.

В перспективе – тренажерная площадка. Место среди многоэтажек нашли и для нее.

### КОГО ЗАПИШУТ В ТЕТРАДЬ

Давно у наших граждан на слуху понятия «железная», «женская», «молодежная» тетради. Для человека непосвященного все просто: поговорили, узнали – записали. Внесение в каждую из тетрадей – итог тщательного анализа. Иначе откуда в некоторых сходах граждан взялись «раздутые» тетради, куда без особых оснований попадали родственники и знакомые аксакалов и других махаллинских активистов? Вот и пришлось отвечать перед законом за каждую такую запись.

Тетради – не просто списки, это возможность скорректировать чью-то судьбу, оказать поддержку, дать старт... Бывало и так: поручают ответственному за дом, который на особом доверии у махаллинского комитета, выявить нуждающихся, а он судит о других по собственному достатку. Рапортует: «У нас таких нет!», а, допустим, в соседнем подъезде живет женщина, у которой вся пенсия уходит на дорогостоящие лекарства. Или одинокий пожилой человек, который лежит с коронавирусной инфекцией.

Поэтому отбор кандидатов, нуждающихся в разных формах поддержки, на особом контроле у аксакалов, требует личного участия и проверки.

– Большим подспорьем в этой работе стала подробная электронная база жителей махалли (их у нас 2500), – комментирует Муяссар Юлдашева. – Делали адресный поквартирный обход, четко представляя, с какими проблемами можем там столкнуться. «Железная» тетрадь действовала только во время жесткого карантина. Больший процент наших жителей – интеллигенция. Остро нуждающихся нет. Помогали потерявшим работу и вынужденно отрезанным от родственников. С ослаблением карантина жизнь семей вошла в свою колею. Организована врачебная помощь со стороны поликлиники №5. Есть лежачие больные. Там ведется постоянный патронаж.

В «женскую» тетрадь вошли четыре человека. Три безработные женщины предпенсионного возраста. Трудоустроили их по специальности. Махаллям помогают инспектора по занятости, у которых всегда есть обновленные данные по вакансиям. К тому же регулярно по средам в одной из махаллей района проходят трудовые ярмарки, куда мы привозим своих кандидатов. Фонд занятости, кстати, находится в «Окибат».

В «молодежной» тетради оказалась только одна выпускница юридического колледжа. Устроили ее инспектором по занятости. У нас проживают 227 юношей и девушек от 18 до 30 лет. Все заняты. Когда составляли списки, 13 человек оканчивали школу. Из них 12 поступили в вузы. Один недобрал баллов. Сказался стресс от потери близкого родственника. Предлагали родителям устроить его на работу – категорически отказались, мотивируя тем, что сын будет усиленно готовиться к экзаменам и они сами несут за него ответственность. Однако эта ситуация у нас на контроле.

Махалли по данному направлению работы проверяют. Комиссия обзванивала молодежь по списку, посещала на дому: все при деле.

### ВЫЙТИ К ЛЮДЯМ

Главный принцип работы системы «махаллабай» – обнаружить проблему и решить ее скорейшим образом, при этом учитывая интересы каждого. Традиционно в народе закрепилось мнение, что махалля – место, где можно получить справки и характеристики. Теперь ситуация меняется.

Перефразировав известное изречение, охарактеризуем положение дел: «Если житель не идет в махаллю, то махалля идет к жителю». Самые частые жалобы на коммунальные службы, перебои с подачей горячей воды, на состояние дорог. ТЧСЖ переживают не лучшие времена: работают без договоренности с жителями, дворников нет, электрики не успевают обслуживать дома (построены в 1967 году), коммуникации старые.

Идет разговор о том, чтобы махаллями занимались специальные компании. В Мирзо-Улугбекском районе 54 схода граждан. Их разделили на 18 лотов, по числу компаний. Руководители последних прошли собеседование в хокимияте, представили презентации в депутатском корпусе. Задача – поднять уровень обслуживания населения, то есть сделать то, что в данное время не по силам ТЧСЖ.

В доверительных беседах с населением нередко высказываются дельные предложения, которые при грамотном хозяйском подходе как раз и становятся решением проблем. Так и выявляются «драйвера» – движущие силы махаллей, чтобы структура не только была в нормальном состоянии, но и изменялась к лучшему. К примеру, в достаточно тесной махалле «Окибат» внутренний резерв – использование нежилых помещений. Предприниматели готовы обустроить и подвалы, параллельно обновляя домовые коммуникации. Они и сами будут там трудиться, и появятся новые рабочие места. Конечно, любые преобразования с согласия жильцов (не менее 51 процента). Пример подал 47-й дом, отказавшийся от услуг ТЧСЖ и перешедший на самоуправление. Творческая интеллигенция как раз пришла к выводу, что гораздо выгоднее отдать подвал предпринимателю. На старте 43-й дом.








### НОВЫЙ ДЕНЬ ПРИШЕЛ В «НАВРУЗ»

В махалле Мирабадского района столько преобразований, что свою мини-презентацию аксакал **Исроил Мирзаев**, привыкший к военной дисциплине и четкому выполнению приказов (подполковник в отставке, ранее работал с личным составом воинских частей и военно-образовательного учреждения, его называют лучшим раисом района), начинает с благодарности:

– Спасибо Президенту за систему «махаллабай», которая поднимает уровень и престиж махалли. Стали решаться проблемы, которые копились годами. Обычно с порядком там, где находится частный сектор, проблем не бывает. Хозяйки строго следят за чистотой прилегающей к дому территории. Однако наши улицы находились в плачевном состоянии. Их требовалось асфальтировать. Четыре старых двухэтажных дома пугали своим видом.

За махаллей закрепили компанию «Кишлок курилиш инвест». Двухэтажки красуются, как новенькие. Отремонтированы выгоревшая квартира и пострадавшая от огня соседняя. Пришлось поработать и во дворах. Столько шуму было! Сносили сараи, в которых жители складывали ненужный хлам. Зато теперь построили библиотеку: родителям можно почитать во дворе, пока дети играют.

Словно и жильцы помолодели вместе с домом. Пенсионер Александр Тищенко не скрывает радости:

– Шикарный двор получился. С удовольствием выхожу гулять. Любуюсь фасадом. Но самый главный подарок от государства – это выделение денег на операцию сына. Спасибо неравнодушным людям!

Учительнице Норбуви Бозоровой было стыдно гостей приглашать. Боялась облезлых стен, ветхой крыши. Удручающая картина – перед родственниками и друзьями неловко:

– Теперь, наоборот, повод ищу зазвать кого-нибудь на чай. Пусть видят, как о нас родная страна заботится. Мало того, что дом обновили, по улицам пройти – огромное удовольствие: ни ямы, ни выбоины. А кто может похвастать библиотекой во дворе?! Я учительница. Книги ценю.

Оборудовали спортивные площадки «пять в одном» для занятий разными видами спорта и для воркаута. Открытие планируется (кстати, и библиотеки тоже) в Международный день защиты детей. Будет у подрастающего поколения запоминающийся праздник.

О состоянии дорог Исроил Жалолиддинович писал в разные инстанции несколько лет. Можно сказать, крик души сегодня услышали. Система развития махаллей помогла. Добротное покрытие радует наврузовцев, особенно владельцев транспорта. Из бюджетных средств хокимията выделено 800 миллионов сумов на стопроцентное асфальтирование 19 основных и 13 прилегающих улиц.

### ПОДДЕРЖКА И ВНУТРЕННИЙ РЕЗЕРВ

На территории «Навруза» проживают 3500 человек. Провели очередную перепись населения, изучая проблемы женщин. Внесли 24 в «женскую» тетрадь. Были безработные, инвалиды, нуждающиеся в медицинской помощи, те, кому требовалась юридическая или психологическая помощь.





На сегодняшний день подали документы в районный Кенгаш народных депутатов на выведение из тетради 14 человек, потому что окончательное решение выносит этот орган. Молодежь от 18 до 30 лет – 340 юношей и девушек. Шестеро включены в «молодежную» тетрадь. Всех обеспечили работой. Помогли получить льготные кредиты на развитие собственного дела. Одну девушку отправили обучаться бизнесу. Получила сертификат.

За махаллей закреплен представитель «Универсал-банка». Проблем с кредитами не возникает.

В «железной» тетради с начала пандемии было 156 человек по шести направлениям, осталось трое.

Чтобы определить реальные «драйвера», нужен обстоятельный анализ. Выход подсказало расположение махалли. Какая экономическая выгода, если «Навруз» находится между аэропортом и вокзалом? А такая: вполне возможно, что поиски жилья гости столицы начнут (поздний рейс, место в отеле заранее не забронировано, в центре дороже и т.д.) с близлежащих районов.

Вот и появились в «Наврузе» хостелы и частные домашние гостиницы. Сегодня функционируют один и две соответственно. Строятся еще двухэтажный хостел и домашняя гостиница. Запланирован девятиэтажный комплекс под магазины, службы сервиса, офисы и гостиничные услуги. Проект предложен жителем махалли и его бизнес-партнерами.

### К УСПЕХУ ВЕДУТ МИР И ЛАД

Махалля – организм сложный. Выйдет из строя один «винтик» – другому работу затруднит, а то и вовсе выведет из строя. Сможет ли заниматься предпринимательской деятельностью семья, давшая трещину? Поступит ли в институт юноша или девушка, если в доме не утихают скандалы? Уровень воспитательной работы не может снижаться ни при каких системах.

– Ратуем за благосостояние, снижение бедности, – говорит Исроил Мирзаев (кстати, в его дипломе об окончании военного училища есть запись «психолог»), – но не забываем об уважительных отношениях между людьми, которые должны присутствовать независимо от степени родства или знакомства. На работе нет места личной неприязни. Стараемся к каждому подходить с меркой человечности. Ведь мечтаем, чтобы махалля стала единым целым, где за общее дело все болеют душой.

Аксакала пригласили выступить на телеканале «Sevimli», поделиться соображениями о крепкой семье. Сколько их прошло перед глазами за время работы! Не дожидаясь заместителя, специализирующегося на семейных вопросах, проводил индивидуальные беседы. Причем сразу видел, возможна ли «реанимация» супружеского счастья. Прочный тыл – не простые слова. Порядок в семье – работа спорится, есть интерес к делам друг друга – хочется достичь большего.

– Зато нас легко сделать крайними в любых вопросах, – делится наболевшим Исроил Жалолиддинович. – Даже если будем ночевать на работе, все равно найдутся критики, навешивающие ярлыки «бездельников». Престиж махалли поднимается, но при всех достижениях нашего традиционного общественного института мы, его сотрудники, остаемся уязвимыми. Надеемся, результатом системы «махаллабай» будет гармония – не только материального, но и культурного, духовного богатства.

**Полина ЛЮДИНИНА**





ДИАЛОГ КУЛЬТУР



# Как мы будем жить вместе?

***Узбекистан впервые принимает участие в Венецианской архитектурной биеннале. Дебют примечателен еще и тем, что наша страна – первый представитель Центрально-Азиатского региона на самой знаменитой в мире архитектурной выставке.***

Тема биеннале – «Как мы будем жить вместе?». Организаторы объясняют свой выбор тем, что во времена политических разногласий и растущего экономического неравенства люди все больше нуждаются в пространствах, где они могут объединиться.

На главный вопрос архитектурного форума наша страна отвечает инновационным проектом «Махалля: урбанистическая и провинциальная жизнь», представленным в национальном павильоне. Это результат интенсивного сотрудничества международной команды экспертов и начинающих художников, архитекторов – участников междисциплинарной экспериментальной лаборатории Центра современного искусства в Ташкенте CCA Lab.

Молодежь взяла на себя создание «фэнзина» (fan magazine – «фанатский журнал»). Это своеобразный гайд из 40 самых важных слов в жизни любой махалли, который могут забрать на память посетители национального павильона. Работая над фэнзином, молодые исследователи беседовали с жителями старогородской части Ташкента, отбирали те слова и выражения, которые наиболее полно передают дух и колорит традиционного схода граждан. Некоторые из них очевидны, другие меньше, но все вызывают самые теплые чувства и позволяют совершить путешествие в невидимую «коллективную» махаллю.

Неоценимую помощь в подготовке концепции национального павильона оказали профессора архитектуры и дизайна Высшей технической школы Цюриха Эммануэль Крист и Кристоф Гантенбейн. Именно они стали главными кураторами нашего проекта. В 2019 году эксперты посетили Ташкент, Бухару, Хиву и провели 3D-сканирование ряда жилых домов и сооружений.

«Махалля – явление, которое встречается не только в Узбекистане, но и во всей Центральной Азии. Но лучше всего она сохранилась в Ташкенте, и собранный материал должен быть передан международному сообществу. Портрет махалли основан на исследованиях с использованием новейших технологий и исторических документов», – поясняет Э.Крист.

Позже к рабочей группе присоединился известный фотограф и художник Бас Принцен, который провел съемки в Узбекистане. Его работы высвечивают невидимое пространство улиц и домов, изображают некоторые детали как сюрреалистические явления. Еще одним участником проекта стал испанский художник и режиссер Карлос Касас, попытавшийся воссоздать звуки махалли. Со стороны Узбекистана научным консультантом выступил доктор архитектуры, профессор кафедры ТАСИ Абдуманноп Зияев: он представил редкие фрагменты старинных карт. Были привлечены и многие другие отечественные специалисты.

Вот в таком творческом тандеме рождался уникальный интерактивный проект, который с первого дня работы Венецианской архитектурной биеннале привлек внимание участников и гостей. Посетители национального павильона Узбекистана словно попадают в старинный ташкентский дом, могут услышать звуки, которыми он наполнен (акустическая атмосфера меняется в течение дня), оценить красоту внутренних пространств. Переходя из комнаты в комнату, знакомятся с обычаями, традиционным укладом жизни, архитектурными и культурными особенностями. Тот, кто захочет детальнее изучить структуру жилого помещения, может это сделать с помощью специального мобильного приложения, созданного на основе облачных моделей реальных домов. Путешествие во времени и пространстве – вот что такое проект «Махалля: урбанистическая и провинциальная жизнь».

«На мой взгляд, махалля транслирует весьма важные аспекты, которые могут быть интересны всему международному сообществу, и речь не только об архитектуре. Это целая социальная структура, и данный феномен необходимо сохранить», – отмечает Гаянэ Умерова, исполнительный директор Фонда развития культуры и искусства – организации, выступающей комиссаром национального павильона Узбекистана.

Нынешняя Венецианская архитектурная биеннале – семнадцатая по счету. Всего в ней участвуют 63 страны. Масштабная выставка продлится с мая по ноябрь 2021 года.

**Алина ЯГОДКИНА**

# ВЕСЬ ОРГАНИЗМ – МИШЕНЬ

*(Окончание. Начало на 5-й стр.)*

Выходили на улицы города с флаерами и листовками о вреде табака. Предлагали альтернативу сигарете – яблоко, воду без газа.

Безусловно, переубедить человека – задача не из простых. Тем более если речь идет о складывающейся годами привычке. Как будущие врачи, зная о сложных биохимических процессах зависимости, понимаем: отказаться от приятного (а каково окружающим?!) сложно. Однако не перестаем приводить научные доводы, призываем подумать о близких, которые вынуждены дышать загрязненным воздухом за компанию.

Волонтеров, неравнодушных к данной проблеме, много. Пропагандируют ЗОЖ грамотно, выслушивая аргументы собеседника. Даже то, что люди останавливаются для беседы, рассказывают свои истории, делятся опытом, как они пытались бросить курить, но не смогли, – хороший знак. Может, кто-то лишний раз задумается и предпримет очередную попытку.

Массовость акций и внимание случайных прохожих придают уверенности: делаем нужное дело – результаты будут.

Проводя «уроки здоровья», больше склоняюсь к тому, что основная целевая аудитория – школьники. Огромное впечатление в классах производят плакаты с легкими курильщика. Наша цель – убедить не пробовать эту отраву, не подвергать организм множественным рискам.

**– Как поступите, если увидите курящую беременную женщину или молодую маму с коляской?**

– Признаюсь, курящих беременных женщин не встречала. Если б увидела, рассказала бы о «табачном синдроме» плода, о вероятности рождения недоношенного или больного ребенка с задержкой развития.

Детская коляска и сигарета у матери – возмутительная картина. Я немного стесняюсь подходить к незнакомым людям, но однажды около поликлиники сделала замечание такой беспечной мамаше. Мини-лекция удалась.

Думаю, это дело каждого – уберечь ребенка, не допустить, чтобы подрывали его здоровье.

**– Как вообще относитесь к курящим женщинам?**

– Одинаково не приемлю курящих любого пола. Не переношу даже запаха сигарет. Натыкаясь на статистические данные о росте процента женщин с никотиновой зависимостью, расстраиваюсь. Не это должно быть показателем равноправия с мужчинами! Получается, хранительница домашнего очага подбрасывает в него «отравленные поленья», программируя такое же отношение к сигарете у детей, награждая их бронхиальной астмой или другими заболеваниями.

Мне с окружением повезло: курящих нет ни в семье, ни среди однокурсников, ни среди подруг. Попробовать никто не агитировал.

**– А перекур врачей вас не удивляет? Парадокс: зная в мельчайших подробностях о разрушении организма «никотиновым комплексом», они тем не менее заглушают стрессы именно таким образом....**

– Как-то задумывалась об этом. Видимо, знать все о вреде еще недостаточно. Нужен еще какой-то ограничитель, показывающий несовместимость профессии и не украшающей врача привычки.



**– Какой, по вашему мнению, должна быть профилактическая работа с подростками?**

– Повторюсь: она должна начинаться с начальной школы, пока мальчишка или девчонка не втянулись. Первая попытка иногда способна сыграть положительную роль. Вспоминая тошноту, головокружение, а то и потерю сознания, подросток не захочет повторения неприятных ощущений. Важно грамотно и доходчиво объяснить, что так растущий организм реагирует на поступление в него яда и ни в коем случае не стоит игнорировать эти знаки. Иногда короткая фраза действует результативнее часовой лекции.

Плакаты, ролики, интерактивные беседы, фотографии из анатомического атласа с изображением пораженных легких, сердца, сосудов, реальные истории, высказывания известных людей – все можно подчинить единой цели. Обязательно подчеркнуть: «Бросать гораздо труднее, чем не начинать!» Уместно процитировать Рамочную конвенцию ВОЗ: «Сигареты... являясь высокотехнологичными изделиями, разрабатываются таким образом, чтобы создавать и поддерживать зависимость». Зависимость от табака классифицируется как отдельное расстройство.

Особо заостряется внимание на экологической проблеме: табачные продукты загрязняют окружающую среду, ядовитые вещества проникают в почву и воду. Про их концентрацию в воздухе и говорить нечего. Для эксперимента пусть дети посмотрят на обочины дорог. Сплошь усыпаны окурками.

Говорят, каждый сам волен выбирать свою судьбу. Это правильно. Однако мы не одни в этом мире и, затягиваясь сигаретой, подвергаем опасности других. Прав Лев Толстой, утверждая: «...из тысячи курящих ни один не постесняется напустить нездорового дыма там, где находятся женщины, дети, больные и старые люди».

Укорачивая свою жизнь, не отнимайте права быть здоровыми у окружающих!

**Беседовала**
**Ольга АЛЕКСАНДРОВА**

XABAR



***Respublikamizda 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mavjud bo'lgan 19,1 million nafar mehnat resursining 14,8 millioni iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. Shundan 13,2 million nafari o'z ish joyiga ega, 1,6 million aholi bandligini ta'minlash talab etiladi. Ulardan 805,2 ming kishidan ortig'i 16-30 yoshdagi ishsizlardir.***

# BU YIL NECHTA YANGI ISH O'RNI ZARUR?

Bu haqda kuni kecha Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi o'tkazgan majlisda ma'lumot berildi.

Senatorlar, vazirlik va idoralar mas'ullari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari ishtirokida tashkil etilgan yig'ilishda mehnat bozoriga 2021-yilda jami 560 ming bitiruvchi kirib kelishi ma'lum qilindi. Ulardan 103,1 mingdan ortig'i oliy ta'lim muassasalarini, 440 mingga yaqini umumta'lim maktablarini, 18 mingdan ziyodi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tamomlagan yoshlardir. Shundan kelib chiqib, bu yil yoshlar bandligini ta'minlash uchun 1365,2 mingta ish o'rniga ehtiyoj seziladi.

Senatorlar bitiruvchilar bandligini ta'minlash masalasida ilg'or xorijiy davlatlardagi ijobiy tajribalarni ham o'rganish zarurligini aytib o'tdi. Xususan, AQSh universitetlaridagi "Rekruting markazlari", Yaponiyadagi "Umrbod bandlik tizimi", Finlyandiyaning har bir oliy ta'lim muassasasi tarkibidagi maxsus bandlik xizmati, Qozog'istondagi "Diplom bilan qishloqqa" kabi dasturlar misol sifatida keltirildi.

**Muxbirimiz**

# "YOSHLIK ENERGIYASI" – ZUKKOLIK, HAMKORLIK VA FAOLLIKKA CHORLOV

***Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida joriy yilning 19-23-may kunlari "Yoshlik energiyasi" shiori ostida ilk bor yoqilg'i-energetika kompleksi yoshlarining birinchi Yoshlar forumi o'tkazildi.***



Energetika vazirligi tomonidan O'zbekiston energetika, neft va gaz sanoati va geologiya xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi, yoqilg'i-energetika kompleksi tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan institutlar hamkorligida tashkil etilgan forum doirasida bir qator tadbirlar o'tkazildi.

"O'zatom" agentligi va "Rosatom" davlat korporatsiyasi ko'magida Atom texnologiyalari bo'yicha axborot markazi faoliyati va atom energetikasi sohasida o'tkazilgan mashg'ulotlar ulardan biri.

Unda ishtirokchilar guruhlarga bo'linib, yadro texnologiyalari sohasidagi bilimlarini sinovdan o'tkazdi. G'olib jamoa esa munosib rag'batlantirildi.

"O'zatom" agentligi Atom energetikasi va yadro texnologiyalari boshqarmasi boshlig'i Qosim To'xtaxunov elektr energiyani ishlab chiqarish, ushbu manbani tejashda iste'molchi madaniyatini shakllantirish, yadro texnologiyalari va dunyoda AESlar faoliyatining o'rni haqida ma'lumot berdi.

– Yoshlar elektr energiya ishlab chiqarish jarayoni murakkabliklarini bilishi zarur va bunda ushbu forumning ahamiyati katta, – dedi Qosim To'xtaxunov. – Avvalo, har bir odamda energetika sohasi bo'yicha tushuncha bo'lishi kerak. O'tgan yili pandemiyadan oldin oliy ta'lim dargohlariga borib, tushuntirish ishlarini olib bordik. Energetika – bu tizim. Tizimda ishlab chiqarish, generatsiya, yetkazib berish va iste'molchi bor. Bu tizimning uchinchi elementi – iste'molchi o'zining fikrini – energetika masalasiga qarashini o'zgartirishi zarur. Shunda biz ko'zlangan natijaga erishamiz.

– "O'zbekgidroenergo" AJga qarashli "Andijon GES" unitar korxonasida ishlayman, – dedi Andijon viloyatidan kelgan ishtirokchi Ilhomjon Nuriddinov. – Korxonamizda yosh mutaxassislar ko'pchilikni tashkil etadi. Rahbariyatimiz tomonidan yosh kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Xitoy, Rossiya davlatlariga malaka oshirishga yuboriladi. Albatta, bunday imkoniyat tajriba va ko'nikmaga ega bo'lishimizda juda foydali. Vazirlik tashkil etgan "Yoshlik energiyasi" shiori ostida o'tkazilgan forum biz uchun har jihatdan samarali bo'ldi.

Forumda mahalliy yoshlar qatorida Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasidan ham ishtirokchilar qatnashdi.

– Ushbu forumda qatnashayotganimdan behad xursandman. Neft-kimyo sanoati vakili sifatida ishtirok etyapman. Bu yerda o'zbek tengdoshlarim bilan muloqot qilishga yana bir imkon bo'ldi. Negaki, o'tgan yil ham mamlakatimizda O'zbekiston, Belarus va Ukraina davlatlari ishtirokchilari o'rtasida o'quv mashg'ulotlari o'tkazilgan edi. O'quvda faol ishtirok etganimiz uchun mana bu yil O'zbekistonga kelishga musharraf bo'ldik. Mazkur forum yoshlar uchun taassurotlarga boy bo'ldi, – dedi tadbir ishtirokchisi Yekaterina Polyanskaya.

Forumda "Eriell Group" kompaniyasi tomonidan ham taqdimotlar o'tkazildi. Shuningdek, "Zakovat" intellektual shousi tashkil etilishi, sport musobaqalari hamda o'zbek kinematografiya ijodkorlari tomonidan "Meros" filmining premerasi namoyishi forumga yanada zavq ulashdi.

Forum doirasida 21-may kuni ommaviy axborot vositalari vakillari uchun "Uzbekistan GTL" zavodiga press-tur tashkil qilindi. Unda ishtirokchilar zavodning qurilish jarayoni bilan tanishdi.

Ishtirokchilarga "Uzbekistan GTL" zavodi axborot-tahlil bo'limi boshlig'i Shohruh Xolmatov hamrohlik qilib, bu yerdagi qurilayotgan ob'ektlar haqida ma'lumot berdi.

– 135 gektardan ziyod maydonda davom etayotgan qurilish ishlari qariyb 96 foiz yakunlandi, – dedi Sh.Xolmatov. – Loyihaning umumiy qiymati 3,61 milliard dollarni tashkil etib, to'liq amalga oshgach 1 ming 300 ish o'rni yaratiladi. Zavodda yiliga 3,6 milliard kub metr gaz chuqur qayta ishlanib, jahon standartlariga javob beradigan 1,5 million tonna yuqori sifatli va ekologik toza sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqariladi. Zavod ishga tushirilgandan so'ng tabiiy gazni chuqur qayta ishlash asosida mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyasiga va yoqilg'i sifatini yaxshilashga erishiladi. Mahsulotlardan transport, qishloq xo'jaligi, aviatsiya, neft va kimyo sanoati tarmoqlarida foydalanish rejalashtirilgan.

**Nasiba ZIYODULLAYEVA,**
**O'zA muxbiri**

JARAYON

# PROFESSOR-O'QITUVCHILAR MAHALLADA DARS BERADI

***Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ularning bandligiga ko'maklashish, tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish borasida olib borilayotgan ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni jonlantirdi.***

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi mahalla fuqarolar yig'inlari va umumta'lim maktablari bilan o'zaro hamkorligini yanada mustahkamlab, mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko'maklashmoqda. Akademiya professor-o'qituvchilari poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi "Gulbozor", "Ko'kcha darvoza", "Janggoh", "O'rda" hamda "Ko'xota" mahallalariga biriktirildi.

Ayni paytda Akademiya mutasaddilari bu mahallalarda fuqarolar yig'inlari raislari bilan uchrashuvlar tashkil etib, haftada bir kun aholi o'rtasida psixologik konsultatsiya va psixologik treninglar olib borish haqida kelishib olindi.

Akademiya va mahallalar o'rtasidagi hamkorlik natijasida yoshlar bandligini ta'minlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ko'maklashiladi, ishsiz yoshlar soni aniqlanib, tadbirkorlik o'quv kurslari tashkil etiladi. Namunali va iqtidorli talabalar hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan o'g'il-qizlar bilan do'stona uchrashuvlar tashkil etilib, ijarada yashovchi talabalarning yashash sharoitlarini o'rganish va zarur hollarda ularga amaliy yordam ko'rsatish ham nazarda tutilgan.

Mahallalarda "Quvnoqlar va zukkolar", "Talabalar teatr studiyalari"ning chiqishlarini tashkil etish, mahalla yoshlari o'rtasida "Zakovat", "Rektor kubogi uchun" kabi intellektual hamda sport bellashuvlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishtirish, ularning huquqiy onggi va madaniyatini oshirish bo'yicha yoshlar uchun sayyor huquqiy va psixologik maslahat qabullari, "Xonadonbay" ishlash tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Shu yil 6-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Yig'ilishda belgilangan topshiriqlar asosida Akademiya mahallalarda OTMga tayyorlov kurslarida o'qish va xorijiy tillarni o'rganish istagida bo'lgan yoshlar ro'yxatini shakllantirmoqda. Mahalla qoshida to'garak tashkil etilib, "Chet tillari" kafedrasi professor-o'qituvchilari saboq berishi belgilandi.

**Hasan USMONOV**

E'TIROF



**Huquqshunoslik kasbi birmuncha jiddiy hisoblanadi. Negaki bu kasb egalari insonlar taqdiri, hayot-mamotini hal etadi. Shundanmi, huquqshunoslarni ko'pchilik hissiz, kamgap, adabiyotdan uzoq deb hisoblaydi. Aslida unday emas. Adabiyotning huquqshunoslik bilan bog'liqligi, kerak bo'lsa, boshqa sohalarga qaraganda ham ancha yaqin deb o'ylayman.**

# Adabiyot va huquq uyg'unligi

Huquqshunos adabiyotga qanchalik yaqin bo'lsa, unda odamiylik, boshqa insonlarni tushunish, o'zganing haqiga xiyonat qilmaslik, huquq bilan tartibga solinmagan munosabatlarni ham axloq normalari orqali yaxshi anglab yetish kabi xislatlarga ega bo'ladi. Negaki, adabiyotni sevgan, badiiy kitobni mutolaa qilgan insondan hech qachon yomonlik chiqmasligini buyuk bobolarimiz ham aytib o'tgan. Adabiyot insonni kengroq fikrlashga da'vat etadi.

Toshkent davlat yuridik universitetida adabiyotga qiziqadigan talabalar talaygina. Bu qiziqishni yanada rivojlantirish, talabalarni adabiyotga yaqinlashtirish uchun universitetda barcha ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, "Tafakkur" to'garagi tashkil etilgan. To'garak sevimli ustozimiz Rahmon Qo'chqor boshchiligida faoliyat yuritadi va turli badiiy asarlar talaba-yoshlar tomonidan qiziqish bilan muhokama qilinadi. Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan yoshlar o'rtasida muntazam ravishda "Zukko kitobxon" tanlovi o'tkazib kelinadi. Universitetimizda "G'afur G'ulom stipendiyasi" va "G'afur G'ulom ko'krak nishoni" ta'sis etilishi ham adabiyotsevar talabalarga yanada shijoat bag'ishladi. Kuni kecha shu stipendiya va ko'krak nishonlari o'zining munosib egalariga topshirildi.

— Bunday e'tirofga loyiq ko'rilganlarga beriladigan stipendiyalar "Alisher Navoiy", "Beruniy" stipendiyalariga teng miqdorda belgilangan, — deydi universitetning yoshlar masalalari bo'yicha prorektori Ahror Hoshimxonov. — Bu talabalarimizni adabiyotga yanada yaqinlashtirib, ularning har jihatdan yetuk shaxs bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Bu universitetimizning biz, yoshlarga ulkan e'tibori va ishonchi desam, yanglishmayman. Akalarim va opalarimning ko'ksini bezab turgan nishonlarini ko'rib, juda havas qildim va o'zimda ham shu mukofotni olish uchun yanada ko'proq o'qib-o'rganish istagi paydo bo'ldi. Albatta, buning uchun adabiyotga yanada ko'proq mehr qo'yish, ayniqsa, G'afur G'ulom ijodini chuqur o'rganish talab etiladi. Bundan maqsad mukofotni qo'lga kiritish yoki obro' qozonish emas, balki shu orqali adabiyotga yanada yaqin bo'lish, bo'lajak huquqshunos sifatida hayotni yaxshiroq anglashdir.

**Malika ERALIYEVA,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi**

ISLOHOT

# Ayol – xonadonimiz charog'boni

**Ayol – jamiyatning faol ishtirokchisi, xonadonimiz farishtasi, charog'boni. Oilada o'zaro hurmat va hamjihatlik, mehr-oqibat muhitini yaratish, farzand tarbiyalash, mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda ayolning o'rni beqiyos.**

Xotin-qizlar har jabhada faol. Jamiyatning barcha sohalarida g'ayrat-shijoat ko'rsatib, tashabbuslarini hayotga dadil tatbiq etayotir. Bu yurtimizda ayollarning huquq va manfaatlari to'la muhofaza etilayotganining yaqqol ifodasidir.

Konstitutsiyamizning 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar barcha sohalarda teng ekanligi belgilab qo'yilgan. Ayollarning jamiyatdagi, davlat ishlari va oiladagi rolini yuksaltirish davlatimizning ustuvor siyosatidir.

Bugun ko'plab xotin-qizlar davlat boshqaruvi organlari va turli sohalarda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. O'zbek ayollariga, davlat boshqaruvi sohasida bilim va tajribasini oshirishi uchun yaratib berilgan imkoniyatlardan tashqari, ularga mikrokreditlar ajratishning samarali tizimi yo'lga qo'yildi. Bu orqali xotin-qizlarimiz oilaviy korxonalar tashkil qilib, biznes sohasida o'z salohiyatini namoyon qilmoqda.

Xotin-qizlarning faolligini oshirishga bo'lgan to'siqlar, ularning haq-huquqlari va manfaatlari kamsitilishining oldini olish borasida ham mamlakatimizda e'tiborga molik ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Misol uchun, Mehnat kodeksida ayrim toifadagi xodimlar tariqasida ayollarga oilaviy vazifalarni bajarish bilan bog'liq qo'shimcha kafolatlar belgilangan. Mehnat qonunchiligida ayollarga bir qancha imtiyozlar ko'zda tutilganligi bois, onalarimiz barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega. Jumladan, ikki yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazish hamda tungi, ish vaqtidan tashqari va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilish yoki xizmat safariga yuborishning cheklanishi, shuningdek, homiladorlik yoki tug'ish va bola ikki-uch yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun ta'til hamda bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar berilishi kabi normalarning mavjudligi xotin-qizlarimizga yaratilgan imtiyozlardan dalolatdir.

Zamonaviy tibbiyot muassasalari — ona va bola skrining markazlari, qishloq vrachlik punktlari, sport-sog'lomlashtirish maskanlarining foydalanishga topshirilayotgani ham bejiz emas. Bu ona-bola salomatligi doimiy e'tiborda ekanidan dalolatdir.

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi va g'oyasi asosida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Umuman, yurtimizda xotin-qizlar qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, bandligini ta'minlash va muammolarini bartaraf etish orqali ularni rozi qilish eng muhim masalalardan biridir.

**Noila MUSTAFOYEVA,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi**

# HARAKATLAR STRATEGIYASIDA MADANIYAT VA SAN'AT TARAQQIYOTI ASOSLARI

***"2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" mamlakatimiz taraqqiyoti uchun dasturilamal bo'lmoqda. Hujjatning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida madaniyat va san'at sohalarini yanada taraqqiy ettirish, beshinchi ustuvor yo'nalishida esa jamiyatni turli madaniy tahdidlardan muhofaza qilish vazifalari belgilab qo'yilgan.***

Madaniyat va san'at, jumladan, musiqa san'ati taraqqiyoti asoslari Harakatlar strategiyasining negizi sifatida qabul qilingani soha vakillari zimmasiga bir qancha vazifalar yuklaydi. Bularning asosiylari quyidagilardan iborat:

birinchidan, madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda milliy tajribalarni targ'ib qilish hamda jahon xalqlari madaniy yutuqlarini o'zlashtirishga e'tibor berish;

ikkinchidan, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni davom ettirish va ularni munosib tarbiyalash;

uchinchidan, jamiyatni turli madaniy-ijtimoiy tahdidlardan asrash choralarini ko'rish.

Bu vazifalar sohaning katta-yu kichik, havaskor va professional vakillari tomonidan idrok etilishi, "Bu ishlarga men qanday hissa qo'shishim mumkin?" degan savol mudom uning kun tartibida turishi kerak. Isbotga hojat yo'q, har kim o'z vazifasini sidqidildan bajarsa va o'z faoliyatining samarasi uchun mas'uliyat his qilsa, madaniyat va san'at rivoji mamlakatimizda yangi bosqichga ko'tariladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har bir nutqi va ma'ruzasida ayni shu masalaga urg'u bermoqda. Shu ma'noda, musiqa san'ati va uning cholg'u ijrochiligi yo'nalishini rivojlantirishning yangi ikki omili hujjatda belgilab qo'yilgan. Bu ikki omil Harakat va Strategiyadan iborat. Unga ko'ra, Harakat omili musiqa san'ati va uning barcha yo'nalishlarini puxta o'ylangan tashkiliy va ma'naviy asoslarga tayanib rivojlantirishni, Strategiya omili esa sohani istiqbolli va real samaralarni ko'zlab rivojlantirib borishni ifodalaydi.

Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishga e'tibor qaratilishi kerak:

– musiqa san'atini rivojlantirishning amaldagi Dasturlari ijrosini o'z muddatida to'liq ta'minlash;

– musiqa san'ati yo'nalishlarini rivojlantirishning yangi Dasturlari va rejalarini ishlab chiqib, amalga oshirish;

– rivojlantirish dasturlari va rejalarini moliyaviy ta'minlashning yangi va qonuniy investitsiyasini topish va ulardan oqilona foydalanish;

– iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvalash, ijro mahoratini oshirish va "Ustoz-shogird" an'analarini yangicha asosda tashkil qilish;

– musiqa san'atining barcha yo'nalishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish;

– musiqa san'atiga oid muammolarni aniqlash va o'z vaqtida hal qilish.

Musiqa san'ati va uning cholg'u ijrochiligi yo'nalishini Harakat va Strategiya omillari asosida rivojlantirish sohada yuksak samaralar berishi shubhasiz.

**Dilnoz JO'RAYEVA,**
**Bekobod shahridagi 3-maktabning o'qituvchisi**

UMR MANZARALARI

# Qo‘riqchi qishloq haqiqatlari



Umumiy haqlik – qurbonlari qonini peshonasiga surtib, jasad qoshida yig‘laguvchi, ko‘z yoshlari esa vositaga aylanib, umuminsonlikdan tanho yashashga qo‘yilgan haqlikdir. Sag‘ir dunyoning haqiqat talab qulochi – haqsizlikka tashlangan birinchi qadamdir, balki.

Haqsiz dunyoda haqiqat istab, haqtalab bolalik tomon talpinamiz, uning bag‘rida ungan mitti haqiqatlarga yuzlanamiz. Lek bu qaytishda sen va meni bog‘lagan badbaxt nafs arqonlarini uzolmassan, albat. Bu haqiqatlar jon saqlagan, biz bosib o‘tgan, ammo dunyoyi – dun bag‘rida ko‘zimizga tortilgan pardalar ortidan topolmaydigan bolalik vodiysiga adabiyot atalmish ruh va jasad oralig‘idagi ko‘prik orqali yo‘l olamiz.

Bu vodiyni hamma ham qalam orqali adabiyotga muhrlay olmaydi. Adabiyotning ham bolalarcha erkaliklari bor. Shunday ijod ahli vakillari borki, ular mudrayotgan umrni birdam muzlatib, seni o‘sha hurlik ostonasiga yaqinlashtiradi. Mana shunday ijodkorlardan biri, shubhasiz, Asqar Mahkamdir.

***...Tog‘larni qo‘riqlab yotar qishloqlar...***

Qo‘riqchi qishloqning bag‘rida ulg‘aygan shoir, o‘z she’rlarida buvisini ko‘p xotirlaydi:

***Buvim yolg‘iz qoldi***
***sandal chetida,***
***Bizni deb tomiga yozmaydi qurut.***
***Itlar hurib o‘tar devor ortidan,***
***Sedanaga tumor tikar boumid.***

Bu misralar barchamizning bolalik xotiralarimizni tiriltiradi. Insonlikning bolalik sahifalari bag‘rida cho‘pchaklar aytib, bizni katta hayotga tayyorlagan buvi obrazi jonlanadi. Shoir ham bu sahifalarga o‘z ijodi sarhadlarida ko‘p bor yuzlanadi. Sandal chetidagi yolg‘iz, bor topgani, o‘y-xayoli shu bolalar bilan band buvi obrazi. Devor ortidagi itlardan, bu qora ko‘zlarni saqlab yurish uchun sedanaga boumid tumor tikayotgan buvi. Bu itlar oddiy itlar emas, o‘sha zamonning qopag‘on ITlari edi. Xo‘sh, shoir buvi obraziga nima uchun urg‘u beradi? Shoirning bolaligiga nazar tashlasak, yoshligida otasi olamdan o‘tgan, onasi esa boshqa er qilib ketadi. Bolalar taqdiri, hayot sochlariga oq qo‘ndirgan yolg‘iz buviga yuklanadi. Uning tom ustiga qurut yozmasligi keyingi bandda oydinlashadi:

***Endi sigirlarni tushda ko‘radi,***
***Tonglar podavonga***
***bermaydi non ham.***
***Arvohkapalaklar kelib turadi,***
***Go‘yo tirilganday bo‘ladi otam.***

Zamon sinovlaridan omon o‘tib olish uchun buvi sigirni sotadi. Arvohkapalak – bu yerda dadasining ruhi kapalakka ko‘chib, go‘yoki kelib turadi. Bir qaraganda, ma’no yuklamagan arvoh kapalak, otasini ko‘rmagan, uni sog‘ingan mitti vujudlarning bag‘rida ungan bir ishonch nishonasidir. Muhtojlikdan olib chiqib ketishga ishonadigan otasini har dam kutgan bu bolalik kapalakka-da umid bog‘laydi.

***“Jon buvi, bizlarga keltirgin shamshir,***
***Jon buvi, shu bugun borma mozorga…”***

Har safar mozorga ketayotgan buvisidan nima uchun u yerga bormaslikni, unga shamshir berishni talab qildi ekan? Balki ko‘z oldida qaddi egilgan buvisini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqayotgandir. Shamshir esa haminqadar ojiz qurol emas, bu shamshir o‘sha zomonning yuragiga uloqtirish uchun kerak.

***“...yashayotir bir kampir – dardmand,***
***Bu dunyoning tirik dardiday”,***
***“Derazaning panjarasidan chiroq kabi mo‘ltirar buvim”***

Shoirning bu misralarida qo‘llangan go‘zal tashbeh ortida, kechaning bag‘rida daydigan, chiroq kabi mo‘ltiragan buvining nigohidagi, yosh shoirning anglagan haqiqatlari yashirin. Aniqrog‘i, dunyoning shoir ruhiga qafas tashlagan kechasi edi.

***Sen devor tiklaysan***
***shoir ukangga,***
***Yashirib qo‘yasan***
***topganingni ham.***
***Buncha termilasan***
***shu tor qo‘rangga,***
***Odamlar dunyoga***
***sig‘maydi, og‘a.***

Yoki:

***Sen, axir, qo‘rqarding***
***tungi sharpadan,***
***Nechun u go‘shaga***
***aylading rihlat?***
***Men ham borgunimcha***
***bir kun orqangdan,***
***Singlim, Shahriniso,***
***qo‘rqmaysanmi, ayt?!***

Shoirlar dunyoga sig‘indi qalb egalari emas. Ular bu dunyoning qalb qo‘riqchilari. Bir-biriga najot bilan tikilib o‘sgan bolalar, ya’ni shoir ko‘z oldidagi jigarlarini, xususan, tungi sharpadan qo‘rqadigan singlisi rihlat aylagan go‘shasi yoki jigariga uy tiklayotgan aka obrazini shunday jonlantiradi. Bular Kofarnihon qishlog‘ida daydigan jonsarak shoirning mitti, ammo umrboqiy haqiqatlari edi. Bu haqiqatlar bir shaxsning emas, balki butun insoniyat hayotiga chizilgan haqiqat tomchilaridir.

Shoir ijodida shunday jumlalar uchraydi: “Qaniydi qalamning o‘z tangrisi bo‘lsa-yu, bu qalamkashlarning ham o‘z jahannamini barpo etsa...”.

**Sardor TOLLIBOYEV**

MULOHAZA

# ULAR DUNYONI O‘Z NIGOHI BILAN KO‘RSIN!



***Har qanday qahri qattiq inson ham bolalar qoshida o‘zini yumshoq tabiat va dilkash qilib ko‘rsatishga urinadi. Shu bois xalqimiz bolalarni farishtaga o‘xshatadi. Go‘yoki ular diydasi qittiq insonni sehirlab, halim qilib qo‘yadi. Bu sehrning ortida yana bir ajib haqiqat bor. Ya’ni bola xotirasi kelajakka tutilgan ko‘zguga o‘xshaydi. Uning oldida o‘zingizni qanday tutsangiz, kelajakda sizni boshqalar xuddi shu alfozda ko‘radi.***

Darhaqiqat, bolalik xotirasiga muhrlangan hodisalar hech qachon unutilmaydi. Shu sabab go‘daklar qalbida, ular qancha ulg‘aymasin baribir yaxshi-yu yomon insonlar surati o‘zgarishsiz qolaveradi. Ayni damda, bizning ularga munosabatimiz bolalarning kelajagini belgilaydi. Buni yaxshi anglagan xalqimiz nozik masaladagi gaplarni bolalar oldida muhokama qilmaydi.

Ammo zamonamizga kelib bu uddalab bo‘lmas vazifaga aylandi, go‘yo. XXI asrning aksariyat ota-onalari farzandlar qalbini asrash deganda mutloq boshqa tushunchaga ega. Shuning uchun ular kunni tunga ulab o‘zini mehnatga uradi. Bola istagi — turli gadjetlar, o‘yinchoqlar-u kiyim-kechak va yemoq-ichmog‘i mo‘l-ko‘l bo‘lishi, eng so‘nggi urfdagi narsalarni qo‘lida muhayyo etishni o‘z burchi deb biladi. Lekin telefondan kundalik xabarlarni kuzata turib fahsh, tajovuzkorlik haqidagi videolavhalarni bolasi yonida bemalol tomosha qilayotganda go‘dak qalbi, uning sira o‘chmas xotirasi haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi. Bu biz ongli ravishda yo‘l qo‘yayotgan, bu haqida o‘zimiz ham bilmaydigan xatolardir. Bu xuddi bolalar huquqlarini himoya qilish uchun qonunlar qabul qilgan xalqaro tashkilotlar va dunyoning ko‘plab mamlakatlarida orzusi poymol bo‘layotgan go‘daklar ahvoliga achinishdan boshqasiga yaramay qarab turgan posbonlar holatiga o‘xshaydi.

Darhaqiqat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1959-yil 20-noyabrda “Bola huquqlari deklaratsiyasi”, 1989-yil 20-noyabrda “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”ni qabul qildi. Bunday xalqaro hujjatlar jahonning keng jamoatchiligi tomonidan iliq kutib olingan va hamon e’tirof etiladi. Lekin urush o‘chog‘iga aylangan mamlakatlar shunday muhim hujjatlardan foydalana olmayotgani, bolalar huquqini ta’minlashga qurbi yetmasligi achchiq haqiqatdir. Suriyadagi urush, yon qo‘shnimiz Afg‘onistondagi nizolar sabab millionlab bolalar taqdirini mavhumlikka uloqtirib, buloqdek tiniq xotirasiga urushday daxshatli so‘zni katta harflar bilan yozib qo‘ymoqda. Bizdan minglab chaqirim naridagi daxshatlar ichida o‘zbek bolalari ham yurgani kishini xavotirga soladi. Shukurki, bolajon xalqimiz uzoq o‘lkalarda adashib yurgan go‘daklarga ham befarq emasligini amaliy jihatdan ko‘rsatdi. Masalan, birgina “Mehr-5” operatsiyasida Suriyadan 69 nafar bola olib kelindi.

Umuman olganda, mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat va Jinoyat kodeksi hamda boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalar bor. Masalan, Mehnat kodeksida bolalar mehnatidan foydalanmaslik kafolatlari mustahkamlab qo‘yilgan. Oila kodeksida esa ota-onalar farzandiga g‘amxo‘rlik qilishga majburligi, aks holda mamlakat ularni qaramog‘iga olishi belgilangani bolalarning o‘z uyida ham, jamiyatda ham himoyada ekanini anglatadi.

Shu o‘rinda davlat rahbarining 2020-yil 29-maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini ham e’tirof etish kerak. Qarorga muvofiq, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi joriy etildi. E’tiborlisi, mazkur hujjat bilan Bola huquqlari bo‘yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari aniq belgilab berildi.

Muhimi shundaki, Vakil o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun bir qator huquqlarga ega bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi ko‘rib chiqishi uchun qonunga muvofiq masalalar kiritish, qonunda nazarda tutilgan hollarda bolaning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi arizalar va da’volar bilan sudlarga murojaat qiladi. Ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda tiklash maqsadida sud jarayonlarida qonunda belgilangan hollar va shakllarda shaxsan yoki o‘z vakili orqali ishtirok etadi. Yana bir muhim jihat esa Vakil o‘z vakolatlari doirasida xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatish, ularning a’zoligiga kirish, boshqa davlatlar ombudsmanlari bilan hamkorlik qilish huquqiga ham ega. Muxtasar aytganda, Vakil bolalar huquqlarini himoya qilish uchun zarur barcha huquq va imkoniyatlarga ega.

Bolalar huquqlarini himoyalash borasida shu kabi ishlarning amalga oshirilyotgani kishini quvontiradi. Lekin ularning tarbiyasi va kelajagiga bevosita mas’ul bo‘lgan ota-onalar farzandlari uchun nima muhim ekanini bilib olishi zarur. Toki ular kelajak avlod uchun faqat moddiyat zarur degan xato tushunchada qolib ketmasin.

**Ravshan NURIDDIN**

BU QIZIQ

# Mashhurlarning mashhur bo'lmagan asarlari

**Odatda, kitobxonlar yozuvchilarning mashhur asarini mutolaa qilishni xush ko'rishadi. Biroq ba'zan o'sha mualliflar butun dunyoda taniqli bo'lsa-da, ular qalamiga mansub ba'zi asarlarni ko'pchilik bilmaydi. Shunday yozuvchilar va ularning asarlarini sizga tanishtirib o'tamiz.**



**Mark TVEN. "Anqov Vilson"**

Mark Tven bu asarni qarzlaridan qutulish ilinjida bir nafasda yozib tugatadi. Asar "Asr jurnali"da nashr etilishi bilanoq juda qattiq tanqidiy zarbalarga uchraydi. Asarning voqealari bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga olgan. "Anqov Vilson"da yangi tug'ilgan chaqaloqlarni sotgan qullar borasida so'z yuritiladi. Bunday mavzularga Mark Tven boshqa asarlarida ham ko'p marotaba murojaat qilgan.



**Kormak MAKKARTI. "Chegaraning narigi yog'ida"**

Makkartining "Chegara bo'ylab" trilogiyasining ikkinchi qismi, ko'plarning fikriga qaraganda, birinchi qismidan juda kuchli. Ikkinchi qismi aslida juda poetik bo'lsa-da, o'quvchilarga unchalik tanish emas.

Bu asarda Ikkinchi jahon urushida Nyu-Meksikadan Meksikaga sayohat qilgan yosh kovboyning mojarolari haqida so'z boradi.



**Edgar Allan PO. "Janob Valdemarning boshiga kelgan balolar haqida"**

Bu asarni roman emas, hikoya desak to'g'riroq bo'ladi. O'lim ostonasidagi odamni trans holatiga solgan gipnozchi haqidagi asar xuddi ilmiy hisobot kabi o'qiladi. 1845-yilda "Nyu-York" jurnalida chop qilinganidan keyin kitobxonlarning ko'pchiligi asardagi hodisalarni haqiqatday qabul qiladi. Aslida esa yozuvchi ham shunga urunadi. Yozuvchi asarining doim tahayyul mahsuli ekanini yashirishga harakat qilgan.



**Stiven KING. "Taxminan avtomobil kabi"**

Yozuvchining bu asarida boshqa asarlaridagidek voqealar tez sur'atda rivojlanmaydi, King o'quvchini mushtoq qiladi va uni asarning qaysi janrda bitilgani malasida qat'iy qarorga kelishiga yo'l qo'ymaydi. U asar qahramonlari xarakterini ustalik bilan chizadi, ularni shunday kulminatsiya nuqtasiga chiqaradiki, bu esa yetarlicha iste'dodi bo'lmagan qaysidir yozuvchining qalamidan to'kilsa, balki soxta bo'lardi.



**Grem GRIN. "Yollanma qotil"**

"Yollanma qotil" muallifning "Brayton zavodi" asarining yana ham aniqroq ochib berilgan variantidir. Ehtimol, bu ikki asarchalik bir-biriga yaqin mazmundagisi boshqa topilmasa kerak. Faqatgina bir farq, birinchi kitobda hodisalar boy gangster hayotidan, ikkinchi kitob xalqaro josus qismatidan hikoya qiladi.



**Fyodor DOSTOYEVSKIY. "O'smir"**

Bu asar 1875-yilda yozilgan. O'sha paytdayoq ko'plab tanqidlarga uchragan, asar hali-hamon tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Hatto, ba'zi tanqidchilarning ta'kidlashicha, "O'smir" yozuvchining adabiy merosi ro'yxatidan chiqarilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Biroq bu asarning ham muxlislari bor bo'lib, uning ma'no qa'riga yetib borgan o'quvchilar ham oz emas. Dostoyevskiy bu asarda ustalik bilan muhabbat izlayotgan va shahardan qochishni istagan o'smirning boshiga keladigan tashvishlar haqida so'z yuritgan.



**Xaruki MURAKAMI. "Besarhad mo'jizalar mamlakati va dunyoning oxiri"**

Bu roman yozuvchining "Norvegiya o'rmoni" asari bestsellerga aylanishidan ikki yil avval yozilgan. Unchalik mashhurlikka erishmagan bu asarda muallif, asosan, ikki narsaga e'tibor qaratgan: besarhad mo'jizalar mamlakati va dunyoning oxiri. Asar nomini "Boshdan-oyoq mo'jizalar mamlakati" deya tarjima qilsak ham to'g'ri bo'ladi. Asar kutilmagan syujetlari bilan o'quvchini o'zida bir muddatgina ushlab tura olishi mumkin xolos.



**Jorj ORUELL. "Ruhoniyning qizi"**

O'zining, ehtimol, eng katta tanqidchisi hisoblangan Jorj Oruell "Ruhoniyning qizi" asarini be'mani asar deya atab, o'limidan keyin chop etilmasligini talab qiladi. Yozuvchi o'ziga juda talabchan edi. Shuning uchun ham balki hech bir tanqidchi asarlariga uning o'zichalik tanqidiy yondashmagan.

Biroq kasalligi tufayli ko'chaga chiqishga majbur bo'lgan, shu paytgacha uydan chiqmagan ayolning qismatidan so'z yuritgan bu asar, aslida, u qadar yomon emas.



**Jeyms SELTER. "Kassada"**

Selter 88 yoshida "Bor bo'lgan har narsa" nomli oltinchi romani bilan shuhrat qozonadi. Ammo "Kassada" romani ham katta maroq bilan o'qiladi. Roman 1950-yillarda Olmoniyaga harbiy xizmatga yuborilgan amerikalik harbiy uchuvchi haqida. O'zi o'tmishda uchuvchi bo'lgan yozuvchi asardagi hodisalarni g'ayrioddiylik ila tasvirlaydi va roman intihosida, tanqidchilarning so'zi bilan aytadigan bo'lsak, kutilmagan harbiy uchish halokatiga uchraydi.

**Tarjimon va to'plovchi: Maqsuda YO'LDOSHEVA**

E'LON

Abdullayev Shuxratjon Anvar o'g'liga Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan berilgan 2578 raqamli reyting daftarchasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS: O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR: Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB: Yelena KALININA

NAVBATCHI MUHARRIR: Iqbol PARDAYEVA

DIZAYNER: Zafar RO'ZIYEV

TAHRIRIYAT MANZILI: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar: (71) 233-22-16. (71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 3 bosma taboq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Indekslar: 203, 3203

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma G-555

Adadi – 587

Bosishga topshirish vaqti – 21.00

Topshirildi – 20.02

1 2 3 4 5 6